

CHUST TUMANI

Navoiy davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Ibragimova Zulayho Sobirovna

Navoiy davlat pedagogika instituti 202-gurux talabasi

Talabbojeva Mohinabonu Saydullo qizi

Chust tumani — Namangan viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Chust Farg'ona vodiysidagi eng qadimiy shaharlardan biridir. Shahardan Farg'ona avtomobil yo'li o'tadi. Bu yo'l Chustni Namangan, Andijon, Qo'qon va Farg'ona shaharlari bilan bog'laydi. Sharqdan To'raqo'rg'on, shimoli-sharqdan Kosonsoy, janub va g'arbdan Pop, janubi-sharqdan Mingbuloq tumanlari, shimoldan Qirg'iziston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 0,92 ming km². Aholisi 198,9 ming kishi (2004). Tumanda 1 shahar (Chust), 11 qishloq fuqarolari yig'ini (Axcha, Boymoq, Varziq, Karkidon, Karnon, Olmos, Og'asaroy, Shoyon, Sho'rkent, G'ova, Hisorak) bor. Markazi — Chust shahri. Tuman hududi Chatqol tog'larining etaklaridagi pastbaland tekisliklarda joylashgan

Aholisi, asosan, o'zbeklar, shuningdek, tojik, rus, tatar va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining o'rtacha zichligi 1 km² ga 216,2 kishi. Ko'p qismi adir. Balandligi 1000-1200 m. Tog'lardan oqib tushadigan soylar (G'ovasoy, Olmossoy, Shataksoy, Rezaksoy, Karkidonsoy va boshqalar) jarliklar hosil qilgan. Janubiy qismi Sirdaryoga tutash bo'lib, tekislikdan iborat. Tumanda „Chustmash“, „Paxta tolasi“, „Barion“ aksiyadorlik jamiyatlari, milliy pichoqlar yasash, „Suv mash“ korxonalari, qishloq xo'jaligi mashinalari uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqarish, asfalt zavodlari (Olmos qishlog'i), badiiy buyumlar, qandolat, tikuvchilik, atlas korxonalari, non, sut zavodlari, savdo korxonalari bor. Chustda qadimdan chorak pichoqchilar — „so'zangarlar“ (tojikcha „so'zan“ — „igna“ so'zidan kelib chiqqan holda, igna yasaydigan usta) mavjud bo'lib, bu yerda pichoqlar mayda soxtaxonalarda tayyorlanadi. Chust pichoqlari jahon ko'rgazmalarida ishtirok etgan. Chust do'ppilari 1968-yilda Nyu-Dexli, 1969-yilda Monreal, 1970-yilda Tokio va Poznan shaharlaridagi jahon ko'rgazmalarida yuqori baholandi. Chustning asosiy diqqatga sazovor joylaridan biri bu bog'i bo'lib, unda ko'plab attraksionlar va kafelar mavjud. Bu yerga Farg'ona vodiysining barcha hududlaridan mehmonlar dam olish uchun kelishadi. Bog'ning markazida qadimiy davrning eng diqqatga sazovor yodgorliklaridan biri — Mavlono Lutfulloh minorasi joylashgan.